

Dildoraxon ULMASOVA,
O'zbekiston xalqaro islom
akademiyasi o'qituvchisi

ABDULXOLIQ G'JDUVONIY TA'LIMOTIDA PSIXOLOGIK QARASHLARNING AKS ETISHI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yil oktabr oyida poytaxtimizda o'tkazilgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi ochilish marosimida yurtimizdan yetishib chiqqan islom olami mutafakkirlari asarlarini, ularning butunjahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur o'rganish, dunyoning barcha xalqlariga islom dinining haqiqiy mazmun-mohiyatini yetkazish oldimizga qo'ygan muhim vazifalarimizdan biri ekanligini ta'kidlagan edi. Buxorodan yetishib chiqqan Xoja Abdulxoliq G'jduvoniylar xuddi shunday mutafakkirlar sirasiga mansubdir. Xoja Abdulxoliq ibn Abduljamil G'jduvoniylar tasavvufning yirik namoyandasi, mashhur mutafakkir bo'lib, Xojagon nomi bilan shuhrat qozongan O'rta Osiyo tariqatining asoschisi va rahnamosidir. U 1103-yilda Buxoro yaqinidagi yirik savdo-sotiq karvon yo'llaridan bo'lmish G'jduvon qishlog'ida ma'rifatli oilada tug'ilgan. O'z qishlog'ida dastlabki ma'lumotni olgach, 22 yoshida ilmini takomilga yetkazish maqsadida Buxoroga keladi. Bu yerda o'sha davrning yirik olim va tasavvuf namoyandalardan ta'lim oladi. Xoja Abdulxoliq G'jduvoniylar hayotida mashhur tasavvuf rahnamosi Abu Ya'qub Yusuf Hamadoniylar bilan bo'lgan uchrashuv muhim iz qoldirdi. Yusuf Hamadoniylar uni so'fiylik tariqatiga jalb qiladi. Abdulxoliq G'jduvoniylar Yusuf Hamadoniylar ta'limotini har tomonlama boyitib, amaliyotga zikri xufiyani olib kirdi hamda xojagonlik tariqatining 8 ta rashha (qonun-qoida)sini shakllantirib berdi.

Abdulkoliq G'jduvoniylar butun hayoti davomida bir nechta asar bitadi. Ular jumlasiga "O'dobi

tariqat", Risolai vasoyo", (Nasihatlar risolasi), «Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniylar» (Xoja Yusuf Hamadoniylar fazilatlarini)¹ kabilarni kiritish mumkin. «Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniylar» asarida ustozining tarjimai holi hamda ta'limotini batafsil yoritib beradi. Abdulxoliq G'jduvoniylar ta'limoti keyingi davr yirik sufiylari tomonidan o'rganilgan va sharh qilingan. Masalan, Fazlulloh ibn Ro'zbehonning "Manoqib"idan tashqari, fors tilida yozilgan, muallifi noma'lum "Maqomati Xo'ja Abdulxoliq G'jduvoniylar" (Xo'ja Abdulxoliq G'jduvoniylar hayot yo'li) nomli asar ham bor. Bu asar Abdulxoliq G'jduvoniylar haqida yozilgan turli manbalar hamda uning o'zi yozgan turli manbalar hamda G'jduvoniylar ota-onasi haqidagi ma'lumot va Shayxning tug'ilishi bayoni bilan boshlanadi.² «Mahdumi a'zam» laqabi bilan mashhur bo'lgan Ahmad ibn Mavlono Jaloluddin Xojagiy Kosoniylar Abdulxoliq G'oyat G'jduvoniylarning 4 vasiyatini «Risolai chahor kalima» (To'rt so'z haqida risola) asarida sharhlagan. Abdulxoliq G'jduvoniylar tasavvufga oid ta'limotining asosiy qismi Abdurahmon Jomiyning ustozlari Mavlono Sa'duddin Koshg'ariylar (1456 yil v. e.)ning «Risola» asarida bayon etilgan. Xojalar ahlining xojasi Abdulxoliq G'jduvoniylar 1179-yili 76 yoshida vafot etgan. U volidai muhtaramasining oyoq tomonida dafn qilingan. Qabri G'jduvon shahrida tabarruk ziyoratgoh hisoblanadi.

¹ M.Xasaniylar "Xo'ja Abdulxoliq G'jduvoniylar" haqida risola. O'zbekiston nashriyoti 2003.11-bet

² M.Xasaniylar "Xo'ja Abdulxoliq G'jduvoniylar" haqida risola. O'zbekiston nashriyoti 2003.49-bet.

Abdulkholiq G'ijduvoni o'z ta'limotini va'zlarini targ'ib qilish bilan kifoyalanmay, bir qator risolalar ham yozgan. "O'dobi tariqat" (Tariqat odobi), "Risolai sohibiya" (Do'stlik risolasi), "Az guftori Xoja Abdulkholiq G'ijduvoni" (Xoja Abdulkholiq G'ijduvoniya ba'zi so'zlari), "Risolai shayx ush-shuyux Hazrati Yusuf Hamadoni" (Shayxlar shayxi Hazrati Yusuf Hamadoni risolasi) asarlari shular jumlasidandir.

Abdulkholiq G'ijduvoni tasavvufiy risolalaridan tashqari, go'zal so'fiyona ruboiylar ijodkori sifatida ham ma'lum va mashhur. Lekin shayx-shoirning badiiy ijod namunalari bizgacha to'liq yetib kelmagan. Turli adabiy va tasavvufiy manbalardan uning 12 ta ruboiysi aniqlangan.

Ma'lumki, psixologiya fan sifatida XIX asrning oxirida vujudga kelgan bo'lsa-da, g'oyaviy asoslari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Xususan, ushbu fan shakllanishiga g'arb va sharq allomalarining psixik dunyo to'g'risidagi fikr-mulohazalari ham asos boldi, desak yanglishmaymiz. Shu o'rinda G'arb mutafakkirlari ta'limotidan farqli o'laroq, Sharq mutafakkirlari qarashlari sof ijtimoiy psixologik, umumpsixologik mazmun kasb etib, psixik hayotning asosiy mazmunini tushintirishda ko'mak berishini aytib o'tish muhimdir. Abdulkholiq G'ijduvoni ta'limoti ham shaxs shakllanishi va rivojlanishida o'ziga xos psixologik ko'rsatmalar berganini quyida yoritishga intilamiz. Xususan, ushbu tariqatning o'ziga xos psixologik tarbiyaviy ta'siri shundaki, u har bir narsa yoki hodisaning qadr-qiyamatini baholash mezonini, shaxsni kamol toptirishirishga yo'naltirilgan. Shu jihatdan olib qaralganda G'ijduvoni ta'limoti o'ziga xos ilmiy psixologik mazmun kasb etib, uni tahlil etish shaxs psixologiyasi, umumiy psixologiya, din psixologiyasi, tasavvuf psixologiyasi, dindor shaxs psixologiyasi kabi fanlarda yangi ilmiy tushunchalar, shaxs to'g'risidagi behisob masalalarda aniq yechimlar olib kelishi ehtimoldan holi emas. Bu holat biz tahlil etayotgan ushbu muammoning dolzarblik jihatini belgilaydi. Shu o'rinda ushbu ta'limotning ba'zi qoidalari va ularda aks etgan psixologik, diniy, ijtimoiy psixologik mazmunlarga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Allomalar Yusuf Hamadoni bilan Abdulkholiq G'ijduvoni tomonidan yaratilgan "Hush har dam" qoidasi insonning go'zal, betakror ruhiy tabiati, xush odobi, namunaviy xulq-avtori, shaxslararo munosabatlarda yuksak axloqiy-me'yoriy faoliyati

bir tomondan, bevosita farz qilingan nomozlarni to'la-to'kis ado etish, ikkinchi tomonidan birgalikda yagona Haqqa bo'lgan ibodatning to'la mazmunini tashkil etadi. Bu tushuncha shundan iboratki, Xudo yodi uchun bajarilgan zikr asnosida ichdan chiqayotgan har bir nafas hushyorlik va ogohlik ila chiqmog'i lozim, toki bunda g'aflat yuz bermasin. "Hush har dam" qoidasi, birinchidan, Haqqa bevosita ibodat qilish jarayonida unga yaqinlashishning bir sharti sifatida insonning ichdan chiqadigan nafasidan ogoh bo'lib, har bir nafas oralig'ida g'ofillik bo'lmasligini talab qilsa, ikkinchidan, insonning dunyoviy hayoti davomida yurish-turishi, ruhiy olami, xulq-atvoridagi har bir harakat ham ogohlik yuzasidan bo'lishini, bu harakatlarga nuqson-u illat aralashmasligini taqazo etadi. Bu esa, shaxsdagi sof xarakterologik sifatlarni nazarda tutib, unga xos psixologik qiyofa turini nazarda tutadi³.

Qoidaga amal qilib borish natijasida, inson o'zini o'zi faollashtirish tufayli barcha bilish jarayonlarini (sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, diqqat kabilarni) jadallashtirish imkoniga ega bo'ladi. Bunday vaziyat ta'sirida shaxsning ichki imkoniyati (potensiyasi), favqulodiy jihati ochiladi. Menlik tarkiblari (o'tmishdagi men, hozirgi men, ideal men) to'g'ri shakllanib, o'zini o'zi anglash (hatto refleksiya) takomillashadi. Shuning uchun "Xush har dam" tub ma'noda insonda sergaklikni barqarorlashtirishni ko'zda tutadi.

Abdulkholiq G'ijduvoniya aytishlaricha, odam o'y, fikru-xayolotida ko'rib, eshitib, sezib bo'lmaydigan quyidagi sifatlarni yashiringandir: jumladan,

a) bu tafakurdagi o'y-xayolotning shundan Olloh nuri bilan jilo berilgan sifatki, u insonni dunyoviy harakatlarida har bir narsaga, voqelikka e'tiborsizlikdan, boqi beg'amlik va beparvolikdan ehtiyot bo'lishga chorlab, ogohlantiradi;

b) farishta misol gunohlardan xoli bo'lishni, halol-pokizalikni talab etib, yuksak ahloqiy mezonlarga, me'yorlarga, qoidalarga itoat qilishni taqozo etadi;

v) inson tafakkuri xayolot o'ylovlaridagi uning his-tuyg'ulari, nafsiy xislatlari keltirib chiqaradigan xususiyatlardir. Ular odam moddiy ehtiyojlarini birinchi galda qondirishga qaratilib, ilohiy va farishta sifat xislatlarni inson o'y-fikridan chiqarib tashlashga undaydi.

³ H.Boltaboyev. Islom tasavvufi manbalari. (Tasavvuf nazariyasi va tarixi). O'qituvchi nashriyoti 2005. 116-bet

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan “Hush dar dam” qoidasining amaliyoti ma’lum bir maqsadga erishishda inson o’zini o’zi ijtimoiy va shaxsiy faoliyatini kuchli ongli nazorati ostiga olishi va barqaror irodaviy zo’r berishlar orqali halol sa’y-harakatlar qilishga o’zini o’rganishi va uni uzluksiz tarzda takrorlash, mashq qilish natijasida ko’nikma, malaka hosil etib, odat tusiga aylantirish bilan xarakterini, xulq-odobini komil qilib shakllantirishga olib keladi.

Naqshbandiya ta’limotining “Nazar bar qadam” qoidasi dastavval, shu talabdan kelib chiqqan. Ushbu qoida insonning har bir qadamidan, xatti-harakatidan ogoh bo’lish, uning yurish-turishi, turmush tarzida unsur, noloyiq, harom ishlarini qilmaslik va odam diqqat-e’tiborini bundan chalg’itmaslikni taqozo qiladi. “Xush har dam” bilan “Nazar dar qadam” ibrasining ma’nosi shuki, solikning shaharda, sahroda va bozorda yurganida va o’tirganida, hamma va joyda nazari oyoqlarining orasida bo’lishi kerak deyiladi⁴. Bunda qiqqatning uzviyligi, uzluksizligi, uyg’unligi mustahkamlanadi. Psixologik jarayonlarni o’zida mujassam etgan “Nazar dar qadam” rashhasi esa inson oldidagi vazifalarni bajarilishida diqqatning to’planishi ko’lamini kengaytirishi bilan ixtiyoriy diqqatning ixtiyoriydan keyingi diqqatga o’tish orqali mukammallikka erishishni ta’minlaydi.

Biz yuqorida e’tibor qaratgan ba’zi qoidalar nafaqat diniy-tarbiyaviy, axloqiy-falsafiy balki sof psixologik xulq-atvor sifatleri bo’lib, shaxs shakllanishi va uning ijtimoiy hayot tarzi iqbolini belgilab, shaxs borasidagi o’ziga sharqona psixologik nazariya ham sanaladi⁵.

Quyida Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniyning o’gitlaridan keltirib, tahlil qilishga urinamiz. “Yaxshi nomga ega bo’lay desang, nom chiqarma. Nafsing xor bo’lishi uchun ko’p safar qil. Mashoyixlarning hurmatini joyiga qo’y. Birovning maqtoviga uchma. Birov yomonlasa, xafa bo’lma. Xalqning maqtashi yoki yomonlashi sen uchun befarq bo’lsin. Xalq bilan chiroyli muomala qil. Doimo adab saqla. Barcha holatda yaxshiga ham, yomonga ham lutf-u marhamat bilan muomala qil”. Ushbu pand-nasihatda ham shaxsda shaxslararo munosabatning to’g’ri

yo’lga qo’yilishini ta’minlash, stressni yengib o’tishning amaliy usullari berilgan. Ma’lumki, shaxslararo munosabatlar psixologiyasida ham insonlar bilan o’zaro muloqotda masofa saqlash ularning e’tirof yoki salbiy fikrlariga ta’sirchan munosabatda bo’lmaslik ta’kidlanadi. Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniyning o’gitida ham ushbu tavsiya o’z aksini topgan. Yoxud keying pand-nasihatni olsak, unda “Taqlidchi so’fiylardan uzoq bo’lginki, ular din yo’lining o’g’rilaridir va musulmonlarni yo’ldan uruvchidirlar”, deyiladi. Aynan ushbu nasihatni bugungi kunda dolzarb psixologik muammoga aylanib ulguragan shaxsdagi diniy fanatlik holatining profilaktikasida qo’llash mumkin. Chunki tanqidiy tafakkurni rivojlantirmay ko’r-ko’rona taqlid orqali diniy jihatdan yetarli bilimga ega bo’lmagan odamlarga ergashish kishini diniy fanat shaxsiga aylantirib qo’yishi muqarrardir.

Xoja Abdulxoliq G’ijduvoni ta’limoti jahonda shuhrat qozonishiga sabab uning umumbashariy mohiyat kasb etganidadir. G’ijduvoni tariqati solihni jamiyatdan tamoman ajralib qolmasdan, tavakkul ixtiyor etib, xalq bilan birga bo’lish va o’z kuchi bilan halol mehnat qilishga da’vat etadi. Ushbu ta’limot talabi shundaki, solih mehnat jarayonida, suhbat va safarda “zohiran xalq birla, botinan Haq birla” bo’lib, o’z tirikchiligi ta’minotini boshqalardan tilamay, o’z harakati bilan qo’lga kiritin. Bu eng halol va hurfikr maslak edi. Uning shartlariga shoh ham, darvesh ham rioya etish imkoniga ega bo’lgan. Bu ta’limot o’z mohiyatida dunyoviylik bilan ilohiylikni muvofiqlashtira olgan. Milliy istiqloq mafkuramizdagi, “dunyoviylik dahriylik emas” g’oyasi o’z ildizlari bilan ana shu mohiyatga borib bog’lanadi. Mazkur maslakdagi kishilar tirikchilik tashvishlari, san’at-u hunar mashg’uloti, dunyo ne’matu mehnatlaridan qo’l uzmagani holda Olloh bilan do’stlashish baxtiga muyassar bo’lganlar. Xojagon-naqshbandiya ta’limoti shu jihatlari bilan xalqqa yaqin tarzda shakllangan, elning barcha toifa-yu tabaqalari orasida keng yoyilgan, jahonshumul mohiyat kasb etgan. Shuni aytib o’tish kerakki, o’lkamizda shakllanib, musulmon olamida mashhur bo’lgan Xo’jagan tariqati faylasufar, adabiyatshunoslar, din tarixi mutaxassislari tomonidan birmuncha tadqiq qilingan⁶.

⁴ M.Xasaniy” Xo’ja Abdulxoliq G’ijduvoni” haqida risola. O’zbekiston nashriyoti 2003.80-bet.

⁵ G’oziyev E., Halimov E. Komil insonning psixologik tavsifi. T.: O’zMU, 2006.

⁶ Valiyev B., Mamatov M., Tursunov L., Alimov X., Rasulov A., Saporov M. Din psixologiyasi “Movarounnahr”, 2014. 56-bet.